

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JAMOAT JOYLARIDA BEZORILIKNI OLDINI OLIISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**A.R.Abdug‘afforov**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati kafedrası o‘qituvchisi

**Olaberganov Asror Markis o‘g‘li**

312-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilikni oldini olishga doir faoliyatini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Bundan tashqari Profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilikni oldini olish faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasi, shuningdek, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar, hamda ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha bir qator takliflar yoritib berilgan.

**Аннотация:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в особенностях совершенствования деятельности инспектора по профилактике издевательств в общественных местах. Кроме того, рассмотрены основные направления деятельности по профилактике издевательств в общественных местах, передовой зарубежный опыт совершенствования деятельности, а также проблемы и недостатки в этой деятельности, а также ряд предложений по устранению отдельных видов существующих проблем и недостатков. были выделены.

**Ilmiy maqolaning dolzarbligi:** Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo‘lib, unda ichki ishlar organlari muhim o‘rin egallaydi. O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta‘minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o‘shishiga yo‘l qo‘ymaslik imkonini berdi. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm,



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Mustaqillik yillarida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. El-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi halqparvar ichki ishlar tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, huquqbuzarliklar barvaqt profilaktikasi va oldini olish faoliyatining samaradorligini oshirish bilan o'zviy bog'liq, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Profilaktika xizmatlari tomonidan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlarini o'rganishga bog'liq bo'ladi. Huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari qanchalik chuqur o'rganilsa, uni bartaraf etish ham shunchalik samarador bo'ladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqbuzarlik ob'yekti va sub'yekti o'rtasidagi o'zaro munosabat profilaktika tizimida bir qator muammolarni hal etish imkoniyatini beradi. Ba'zi olimlar mazkur munosabatni huquqbuzarliklarning oldini olish sub'yektlari va huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar o'rtasida vujudga keladi va munosabatga kirishiladi deb tushunishadi. Ayrim olimlar esa, ushbu munosabatni keng ma'noda tushunib, huquqbuzarliklarning oldini olish ob'yektini nafaqat huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar, balki huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar va oddiy fuqarolar ham tashkil etadi deb hisoblashadi. Darhaqiqat, huquqbuzarliklarning oldini olish faqatgina huquqbuzarlik sodir etishni emas, shuningdek jabrlanishning oldini olishni ham o'z ichiga qamrab oladi. SHu bois huquqbuzarliklarning oldini olishning ob'yektini keng ma'noda tushunuvchilarning fikrini o'rinli deb hisoblash mumkin. Biroq boshqa bir guruh olimlar sub'yekt va ob'yekt orasidagi o'zaro bog'liqlikning keng ma'nosini sub'yektning ob'yektga nisbatan ta'siri yuzasidan ko'rib chiqishni va bu yondashuv ob'yekt sifatida huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlari, huquqbuzarliklarni vujudga keltiruvchi salbiy omillar hamda huquqbuzarning shaxsi va xulqiga ta'sir etmoqlikni tushunishni keltirib chiqaradi deb ta'kidlaydilar.

Umumiy tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olishning tub mazmun va mohiyati bu aholini davlatda o'rnatilgan tartib qoidalarga rioya qilish, qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, keng miqyosda huquqbuzarliklarning sabab-sharoitlarini aniqlash va ularni bartaraf etish faoliyati tashkil etadi.

Profilaktika inspektorlari umumiy tartibdagi profilaktikani quyidagi usullarda amalga oshirish bo'yicha takomillashtirib borishi lozim:

– aholi orasida, jamoalarda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy mazmundagi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish (mahalla fuqarolar yig'ini, yarashtirish komissiyalari, diniy-ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar bilan hamkorlikda);



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

– ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, ya'ni gazeta va jurnallarda maqolalar e'lon qilish, radioeshittirishlar tashkil etish, televideniylarda turli ko'rsatuvlar tayyorlash;  
– ma'ro'zalar o'qish, suhbatlar uyushtirish va uchrashuvlar tashkil etish.

Profilaktika xizmatlari tomonidan ma'muriy hududda umumiy profilaktik faoliyatni tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- hududda joylashgan nazoratsiz qolgan binolar, tashlandiq ob'yektlar;
- spirtli ichimliklar bilan savdo qiluvchi do'konlar;
- dam olish maskanlari, diskoklub, bar, mehmonxona va umumiy ovqatlanish joylari;
- muqaddam sudlangan shaxslar to'planishi mumkin bo'lgan joylar;
- diniy-ekstremistik mazmundagi adabiyot, varaqalar hamda ma'naviyatga zid bo'lgan audio, video materiallarining sotilishi, tarqalishi mumkin bo'lgan joylar;
- axloq-odob doirasidagi huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslar to'planadigan jamoat joylarini aniqlash va h.k.

Bezorilik masalasini yanada chuqurroq o'rganish uchun chet davlatlarning Jinoyat kodekslarini tahlil qilish zarur. "Bezorilik" atamasi qanday tushunilishini, bezorilik harakatlaridan keyin qanday jazolarni ko'rib chiqish kerak.

"Bezorilik va bezorilik motivlarini aniqlashda" jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatni ochiqdan-ochiq hurmatsizlik "belgilari asosiy bo'lib qoldi" Ukraina Jinoyat kodeksining 296-moddasi (Bezorilik), ushbu belgilar "eski rejim" - "maxsus shijoat yoki istisno kinizm" bilan to'ldiriladi .

Belarusiya Jinoyat kodeksida batafsilroq to'xtalib, biz "qonun chiqaruvchi" oddiy bezorilik "," yomon niyatli bezorilik "va" ayniqsa zararli bezorilik "tushunchalarini ajratib ko'rsatganiga guvoh bo'lamiz, 14 yoshga to'lgan odamlar bezorilik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ukrainaga kelsak, "agar bezorilik shafqatsizlik, kinizm va odamlarga nisbatan hurmatsizlik bilan jamoat tartibini buzgan bo'lsa, u fuqarolarning soliq solinmaydigan yeng kam daromadlarining 50 baravarigacha jarima, 6 oygacha qamoq yoki ozodlikni cheklash bilan jazolanadi. 3 yilgacha. Agar ushbu harakatlar bir guruh odamlar tomonidan sodir yetilgan bo'lsa, unda jazo 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 4 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish shaklida bo'ladi ».

Jamoat tartibini buzganlar bezorilik harakatlarini amalga oshirib, o'qotar qurol yoki qirrali quroldan foydalangan holda, 3 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksini tahlil qilar yekanmiz, shuni ta'kidlash mumkinki, agar shaxs jamoat tartibini alohida shafqatsizlik bilan buzgan bo'lsa, jamiyatga nisbatan aniq hurmatsizlik bildirgan bo'lsa, zo'ravonlik ishlatgan, boshqalarning mol-mulkini buzgan yoki ziyon yetkazgan yoki kobudlik bilan behayo xatti-harakatlarni sodir yetgan bo'lsa, unda « u 2000 oy gacha oylik hisob-kitob ko'rsatkichlariga qadar jarima, axloq tuzatish ishlari, 2 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Ilmiy o'rganishimiz natijasida «Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. CHunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? YAngi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi». Prezidentimiz tomonidan bunday fikrlarning o'rtaga tashlanishi bejiz emas. Bugungi hayot, taraqqiyot, yangi g'oyalarni, yangi fikrlarni, har bir sohada ilm-fan bilan hamkorlikni talab qilmoqda. Innovatsion rivojlanish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu jarayon bevosita ichki ishlar tizimi faoliyati bilan ham bog'liq. Zero, mamlakatimizda 2021 - yil «YOshlarni qullab quvvatlash va axoli salomatligini mustaxkamlash» deb e'lon qilinishi ham ichki ishlar tizimida jiddiy islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Bugungi kunda, Profilaktika inspektorining kriminogen vaziyatni tahlil etish faoliyatini o'rganish va baxolashda shubxasiz bezorilik huquqbuzarligi sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

Hozirgi kunda bezorilik huquqbuzarliklarini bartaraf etishda

profilaktika inspektorlari oldida bir qator muammo va kamchiliklar mavjud:

1. Xudud profilaktika inspektorlarini fuqarolar bilan muloqot vaqtida diniy bilimlarni yetishmasligi, xamda xudud yetnografiyasi va madaniyatini yaxshi bilmasligi, fuqarolar bilan muloqot jarayonida uziga xos tusiqni keltirib chiqayotganligi:

2. Profilaktika inspektorining mamuriy xududda qaysi fuqaro chet davlatga ketganligi va chet davlatdan qaytib kelganligi xaqida uz vaqtida yetarli ma'lumotga yega yemasligi, ular bilan uz vaqtida profilaktik ishlar olib borilmayotganligi:

3. Sungi vaqtlarda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan jamoat joylarida turli xil axloqqa, xamda madaniyatimizga zid bulgan videroliklar tayyorlanib, joylashtirilayotganligi, bularga nisbatan qullanilayotgan ta'sir choralaridan esa tegishli xulosa chiqarilmayotganligi.

Ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni beraman:

1. Mamuriy xudud profilaktika inspektorlarini diniy bilimlarini oshirish va xududning kriminogen xususiyatini va madaniyatini inobatga olgan xolda xalq bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida xaftada bir marta, xududiy diniy ulamolar bilan suxbat utkazishni tashkillashtirish:

2. CHet davlatlarga ishlash, uqish, davolanish va boshqa maqsadlarda chiqayotgan fuqarolarni nazorat kilish va maxallabay tizimida ruyxatini shakllantirishni osonlashtirish xamda xududda profilaktika inspektorini ta'sir kuchini oshiirish maqsadida: fuqarolarni boshqa davlatga chiqib ketishi uchun, profilaktika inspektorining yozma malumotnomasi zarurligi belgilab kuyilishi:

3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik tug'risidagi kodeksining 183-moddasi 2- qismini "xuddi shunday xarakterlar ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish maqsadida sodir yetilgan bulsa" kabi band bilan tuldirish, ushbu qismga nisbatan yesa og'irroq jazo chorasini qullash.

